KOMPOZITOR MUTAL BURHONOV HAYOTI VA IJODI.

Ruhshona Samijonova
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Cholg‘u ijrochiligi” Yo‘nalishi 4-bosqich talabasi
Axadjon Mamadaliyev
Ilmiy rahbar: O‘zDk “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi dotsenti,Turon Fanlar Akademiyasik faxriy professori

XX asr o‘zbek musiqa san'ati tarixida ko‘plab iste'dodli kompazitorlar ijod qilgan bo‘lsa-da ularning orasida Mutal Burhonov alohida o‘rin tutadi.U o‘zbek estrada qo‘shiqlari, teatr va kino musiqasi,shuningdek,milliy ruh bilan sug‘orilgan zamonaviy kuylar muallifi sifatida xalq qalbidan chuqur joy olgan.Uning ijodiy faoliyati milliy musiqa san'atining yuksalishida muhim vosita bo‘lib hizmat qilgan.

Mutal Burhonov — ko‘pqirrali iqtidor sohibi. O‘zbekiston xalq artisti, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, “El-yurt hurmati” va “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari bilan taqdirlangan. O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi sharafli professori unvoniga loyiq topilgan.

Mutavakkil (Mutal) Muzayyinovich Burhonov 1916 yil 5 may kuni Buxoroda, mudarris, ya’ni madrasa muallimi oilasida dunyoga kelgan. Uning tarbiyasida aslzodalardan bo‘lmish onasi va tog‘asining o‘rni katta bo‘lgan. Deyarli, buxorolik ziyolilar davrasida katta bo‘lib, kuni forsiy va turkiy tillaridagi mumtoz she’riyat va musiqa mutolaasi bilan, shuningdek, mazmunli bahslar ichida o‘tishi, uning qiziqishlariga ta’sir ko‘rsatdi. Sakkiz yoshida u tanbur musiqa sozida chalishni o‘rgangan.

O‘zbekiston bastakorlar uyushmasi raisi Rustam Abdullayevning so‘zlargia ko‘ra, Mutal Burhonov iqtidorining rivojlanishida o‘z davrining eng yaxshi insonlari bilan suhbat ta’sir ko‘rsatdi. Bolalik yillari Fitrat bilan yaqindan tanish bo‘lgan va uning uyiga tez-tez borib turar, u yerda Cho‘lpon, G‘ofur G‘ulom, Hamid Olimjonlar, shuningdek, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona va Toshkentning taniqli ijrochilari va musiqashunoslari bilan ko‘rishib turardi.

Tanbur sozini chalishni Mutal Burhonov, avvaliga, tog‘asi Mukammil Burhonovdan, keyinroq, taniqli tanburchi Ota G‘iyos Abdug‘anidan o‘rganadi. Samarqandda faoliyat yurituvchi O‘zbekiston musiqa va xoreografiya institutining Ota Jalol Nosirov, Abduqodir Ismoilov va Abdurahmon Umarov kabi muallimlari Mutalning noyob iste’dodini payqab, u bilan jiddiy shug‘ullana boshlashadi.

1928 yildan M.Burhonov musiqa bilan shug‘ullanishni yangitdan tashkil etilgan Samarqanddagi O‘zbekiston musiqa va xoreografiya bilim yurtida davom ettiradi. Ushbu bilim yurt (hozirda bu - O‘zbekiston Badiiy akademiyasining san’atshunoslik ilmiy-tadqiqoti instituti bo‘lib, 1931 yil yangi poytaxtga — Toshkentga ko‘chirilgan) o‘zida ta’lim muassasa ishlar bilan birga, ilmiy-tadqiqiy vazifalarni ham mujassam etgan.

1955-1960 yillar M. Burhonov respublika bastakorlar uyushmasiga rahbarlik qilgan. 1964 yil “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi” unvoniga ega bo‘lgan. Uning o‘zbek musiqa madaniyatiga qo‘shgan ijodiy va tashkiliy xissasi mustaqil respublikaning oliy hukumat mukofotlari bilan taqdirlangan. U “Buyuk xizmatlari uchun” (1998) va “El-yurt hurmati” (2001) ordenlari bilan mukofotlangan. Hayotda ham, ijodda ham, Mutavakkil Burhonov o‘z

Diyorinining vatanparvari, o‘ziga va boshqalarga nisbatan o‘ta talabchan shaxs bo‘lgan. U ijodkor yoshlar uchun doim namuna bo‘la olgan.

Mashhur qo‘shiqlari va asarlari :

- “O‘zbekiston-vatanim manim”
- “Go‘zal toshkentim”
- “Besh qadam”
- “Oqshomlar”
- “Navbahor”
- ”Yor-yor”
- ”Mehrigiyo”

Buyuk o‘zbek shoiri Alisher Naoviy timsoliga yuzlangan. Uning “Alisher Navoiy” drama spektakli uchun yozgan musiqasi (1949, Uyg‘un va I.Sultonov sahna asari) bugun ham tomoshabinlar qalbini quvontiradi. Bastakor shoir timsoliga “Alisher Navoiyga qasida”da (A. Oripov she’ri) takroran yuzlanadi, 80-yillarda esa, Izzat Sultonov librettosi asosida va uning bevosita ishtirokida “Alisher Naoviy” operasi ustida ish boshlaydi. 1990 yil opera sahnada qo‘yiladi, g‘oya A.Navoiy nomidagi Davlat akademik Katta opera va balet teatrida mujassam bo‘lgan. Muallifning opera janriga nisbatan marhamati, o‘ziga nisbatan esa tanqidiy munosabati, asarning tarkibiy sahnalaridagi musiqa va librettolarning bir necha bor o‘zgartirishiga sabab bo‘ldi. Uzoq ijodiy izlanishlar natijasi - ajoyib musiqa yaralishi bo‘ldi.

Serg‘ayrat bastakor Mutal Burhonov butun umrini san’atga bag‘ishlab, taqdir sinovlarini fidokorona yengib, yosh iqtidor sohiblariga nisbatan talabchan va mehribon ustoz bo‘lgan. Yoshlarni tarbiyalash ishlariga qo‘shgan xissasi tufayli O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining sharafli professori unvoniga loyiq topilgan.

Mutal Burhonov 2002 yil vafot etgan.

Buyuk san’at arbobi va ajoyib inson Mutal Burhonov xotirasi qalbimizda abadiy saqlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. G'ulomov, A. O'zbek musiqasan'ati tarixi. - Toshkent: G'afur
G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.
3. Burhonov, M. Tanlangan asarlar.- Toshkent: Musiqa, 1982.
4. Mamarasulov, S. O'zbekiston bastakorlari haqida. - Toshkent:Fan, 2001.
5. "Mutal Burhonov." - O'zbekistonmilliy ensiklopediyasi. Toshkent O'ZME 2003.